



HOLIDAYS AND TRADITIONS IN THE USA

(English and Uzbek paremiological units related to the concept of “holiday”)

Djalolova Nargiza Anvarovna

Namangan viloyati Yangi Namangan Tumani

59-sonli Maktab ingliz tili fani o`qituvchisi

Abstract: The article provides an overview of holidays and traditions in the USA. It highlights several major celebrations, such as Independence Day, Thanksgiving, Christmas, New Year's Eve, and Easter, explaining their significance and how they are observed. The article also mentions cultural diversity and the inclusion of festivals like Chinese New Year, Diwali, Hanukkah, and Ramadan, which are celebrated by different communities across the country.

The author emphasizes the historical and cultural importance of each holiday, mentioning their origins and traditions. The article acknowledges the diverse fabric of American society, showcasing the multicultural nature of the country's celebrations. It also mentions the regional variations in holiday observances.

Overall, the article provides a comprehensive overview of holidays and traditions in the USA, highlighting their significance in bringing families and communities together, fostering unity, and celebrating cultural diversity. It offers a concise yet informative understanding of the major holidays celebrated in America.

Keywords: Holidays in the USA, American traditions, Independence Day, Thanksgiving, Christmas in America, New Year's Eve festivities, Easter celebrations, Martin Luther King Jr. Day, Memorial Day, Labor Day celebrations.



Аннотация: Она выделяет несколько крупных празднований, таких как День независимости, День благодарения, Рождество, канун Нового Года и Пасху, объясняя их значение и способы проведения. В статье также упоминается культурное разнообразие и включение фестивалей, таких как Китайский Новый год, Дивали, Ханука и Рамадан, которые отмечаются различными общинами по всей стране.

Автор подчеркивает историческое и культурное значение каждого праздника, упоминая их происхождение и традиции. Статья признает разнообразие американского общества, демонстрируя мультикультурный характер праздников в стране. Также упоминаются региональные вариации в проведении праздников.

В целом, статья предоставляет всесторонний обзор праздников и традиций в США, подчеркивая их значение в объединении семей и общин, способствуя единству и празднованию культурного разнообразия. Она предлагает лаконичное, но информативное понимание основных праздников, отмечаемых в Америке.

Ключевые слова: Праздники в США, Американские традиции, День независимости, День благодарения, Рождество в Америке, Новогодние гуляния, Пасхальные празднования, День Мартина Лютера Кинга мл., День памяти, Празднование Дня труда

Annotatsiya: Ushbu maqola Mustaqillik kuni, Katta rahmat kuni, Rojdestvo, yangi yil tun, va Paskhal kabi bir nechta ko'p o'zgaruvchiliklarni taqdim etadi va ularning ahamiyatini va qanday qilib bayram qilinishini izoxlaydi. Maqolada shuningdek, AQSHdagi madaniy murakkabligi va Xitoy yangi yili, Diwali, Hanukkah, va Ramazon kabi bayramlarning ko'rsatmalari ham aytilgan, ularni mamlakat bo'ylab farzandlar tomonidan bayram qilinishini bildiradi.



Muallif har bir bayramning tarixiy va madaniy ahamiyatiga e'tibor qaratadi, ularning manbalari va an'analari haqida ma'lumotlar beradi. Maqola AQSHning madaniy ko'rinishini namoyish etish orqali mamlakat bayramlarining ko'p madaniy ko'rinishini ko'rsatadi. U yana bayram bo'ylab mintaqaviy farqliklardan ham so'zlashadi.

Bundan tashqari, maqola nutqni jamoalar va jamiyatni jamlab olib, birlashtirish, va madaniy murakkablikni bayramlash uchun ahamiyatini ajratib beradi. Bu manba AQSHda bayram qilinadigan asosiy bayramlarning madaniy tushunchasini qisqa va ma'lumotli tarzda taklif qiladi.

Kalit so'zlar: AQShdagi bayramlar, Amerika madaniyati, "Mustaqillik kuni", "Rahmat kuni", Amerikada, Rojdestvo, "Yangi yil kechasi" marosimi, Paskhal bayrami, Martin Lyuter King jun kuni, Yaddosht kuni, "Mehnat kuni" marosimi

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Barcha tillarda mavjud bo'lgani kabi ingliz tilida ham xoh u og'zaki nutq bo'lsin, xoh yozma adabiyotlar paremiologik birliklar keng miqdorda qo'llaniladi. Quyida biz aynan ingliz madaniyatida, aniqroq aytadigan bo'lsak, ingliz bayramlarida qo'llaniladigan ibratli so'zlarni ko'rib chiqamiz. Dastlab ham diniy ham dunyoviy bayram hisoblanmish "Thanksgiving day" haqida so'z yuritsak.

Thanksgiving is a national holiday celebrated on various dates in the United States, Canada, Grenada, Saint Lucia, and Liberia. It began as a day of giving thanks and sacrifice for the blessing of the harvest and of the preceding year. Similarly named festival holidays occur in Germany and Japan. Thanksgiving is celebrated on the second Monday of October in Canada and on the fourth Thursday of November in the United States and around the same part of the year in other places. Although Thanksgiving has historical roots in religious and cultural traditions it has long been celebrated as a secular holiday as well.



Minnatdorchilik yoki Shukronalik kuni AQSh, Kanada, Grenada, Sent-Lusiya va Liberiya turli sanalarda nishonlanadigan milliy bayramdir. Bu o'tgan yilgi hosil va baraka uchun minnatdorchilik va qurbonlik kuni sifatida nishonlana boshlangan. Xuddi shunday nomlangan festival ta'tillari Germaniya va Yaponiyada ham o'tkaziladi. Minnatdorchilik kuni oktyabr oyining ikkinchi dushanbasida Kanadada, noyabr oyining to'rtinchi payshanbasida AQShda va yilning o'sha qismida boshqa joylarda nishonlanadi. Shukr qilish kuni diniy va madaniy urf-odatlardan tarixiy ildizlarga ega bo'lsa-da, u azaldan dunyoviy bayram sifatida ham nishonlanib kelingan. Quyida ushbu tantanaga doir hikmatli so'zlar va maqollarni ko'rib, tahlil qilib chiqamiz.

"I am grateful for what I am and have. My thanksgiving is perpetual." – Henry David Thoreau. Mening mavjudligim va menda bor narsalar uchun minnat-dorman. Mening minnatdorchiligim cheksizdir. [from Letters to Various Persons, Ticknor and Fields, 1865, p145]. Darhaqiqat, inson avvalo, bu hayotda erishgan narsalariga, o'zida mavjud bo'lgan narsalarga minnatdor bo'lishdan oldin bu dunyoga kelganligiga shukr qilishi lozim. Ayni shu narsa sodir bo'lsagina, qolgan narsalarga erishish imkoniyati yuzaga keladi.

"Not what we say about our blessing, but how we use them, is the true measure of our thanksgiving." -W.T. Purkiser. Ne'matlarimiz haqida nima deyishimiz emas, balki ulardan qanday foydalanishimiz minnatdorchilikning haqiqiy o'lchovidir. [Brain Quotes]. O'zimizning madaniyatimiz va kundalik turmushimizda ham ko'pincha yaratganga shukr, berganingga shukr degan mazmundagi shukronalik so'zlariga guvoh bo'lganmiz va bo'lmoqdamiz ham. Ammo bu so'zlar chin dildan aytilmasa va yoki kimgadir ko'z-ko'z qilish uchun aytilayotgan bo'lsachi?! Yoki yaratgan bizga bergan ne'matlardan faqat so'zda minnatdor bo'lsakda, amalda hech narsa bo'lmasa, hech qanday ahamiyati bo'lmaydi. Shuning uchun har bir narsadan to'g'ri maqsadda foydalanish, ezgulikka xizmat qilish aslida, minnatdorchiligimizning haqiqiy isboti hisoblanadi. Har joyda, har so'zimizda qaytarganimizdan ko'ra bir bor amalda isbotlab, yuzaga chiqqanimiz afzaldir.



"Give thanks for a little, and you will find a lot." - Hausa Proverb. Oz narsa uchun minnatdorchilik bildiring, shunda siz ko'p narsani topasiz. Deyarli hammamiz kundalik hayotimizda boriga baraka bersin, boriga qanoat qil kabi tilaklar va istaklarni eshitganmiz. Doimo shukronalik keltirsak yaratgan bizga yanada ko'prog'ini beradi, albatta. Shu kabi tushunchalar ta'sirida yuzaga kelgan ushbu ibratli so'zimiz insonlarni qanoatli bo'lishga undaydi, da'vat qiladi. "Oz – oz o'rganib dono bo'lur, qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur". Alisher Navoiy hazratlari qalamiga mansub ushbu misralarda ham shunga ishora qilinadi. Albatta, ushbu iboralar ilm o'rganish, bilim egallash haqida ekanligi kundek ravshan. Lekin keling boshqa tarafdin yondashishga harakat qilib ko'raylik. Bu dunyo yaralibdiki, hech narsaga tezlik va osonlik bilan erishilmagan. Shunday ekan bilimga ham xuddi daryo sekinlik bilan paydo bo'lgani kabi sabr bilan erishiladi. Ya'ni qanoat qilish orqali erishiladi. Agar inson intilishdan to'xtasa, sabr qilmasa, shukronalik keltirmasa hayotda ko'p narsaga erisholmaydi. Shukronalik va qattiq mehnat barcha muvaffaqiyatlarning garovidir.

"As we express our gratitude, we must never forget that the highest appreciation is not to utter words, but to live by them." – John Fitzgerald Kennedy. "Biz o'z minnatdorchiligimizni izhor etar ekanmiz, hech qachon unutmasligimiz kerakki, eng yuqori tushuncha bu so'zlarni gapirish emas, balki ularga amal qilishdir. "Insonning minnatdorchiligi, gapirayotgan so'zlari real hayotida o'z aksini topsagina minnatdorchilikning asl mohiyati namoyon bo'ladi. Yuzaki aytilgan gaplar, soatlab aytiladigan minnatdorlik haqidagi nutqlardan zarracha ham foyda yo'q va u qadsizdir. Bu tushunchalarni inson hayot tarziga aylantirmog'i lozim. Yuqorida ham aytib o'tilganidek, insonning nafaqat so'zi, balki amali ham ezgu va yurakdan qilingan bo'lmog'i lozimdir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Xalq – tarix va madaniyatni, moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratuvchi buyuk kuch. Har bir xalq asrlar davomida katta hayotiy tajriba to'playdi. Shu tajribani vositalar bilan kelajak avlodlarga meros qilib qoldiradi. Paremiyalar, ya'ni maqollar, matallar, aforizmlar



ana shunday bebaho merosimiz hisoblanadi. Jahonda hikmat durdonalari yaratmagan, ularni asrlar osha dilida, tilida saqlab kelmayotgan biror xalq yo‘q.

O‘zbek tilida hikmatli iboralarni umumiy qilib, maqol deb atashadi. (O‘zbek xalq maqollari. – T: 1981, 5-b.) Har bir maqol va matn xalq hukmi: ular biror narsani lo‘nda qilib tasdiqlaydi yoki inkor qiladi, ya’ni haqiqatni ifodalaydi.

Maqollar guruhida urf-odat va marosim bilan bog‘liq maqollar juda ham kam. Bunday maqollar asosan to‘y va aza marosimlari bilan bog‘lanadi va odatda ular semantik jihatdan farqlanadi. Masalan, “To‘yga borsang to‘yib bor, yomonliging qo‘yib bor”. Endi ushbu maqolni tahlil qilib o‘tsak. Avvalo, ushbu maqol ikkita sodda gapdan tuzilgan bo‘lib, bo‘laklarini ham alohida alohida ko‘rib chiqish lozim. Odatiy to‘ylardan bizga ma’lumki, dasturxon to‘kin bo‘ladi va kelgan mehmonlar yaxshigina siylanadi. Ammo insonda har xil iqtisodiy vaziyat bo‘lishi mumkin va har bir inson sharoitiga qarab to‘y qiladi. Shuning uchun, xalqimiz har ehtimolga qarshi ul-bul yeb olgin to‘yga borishdan oldin deyishadi. Lekin ushbu maqolning ikkinchi qismi ma’no jihatdan eng “mag‘zi” hisoblanadi. Inson har qancha yomon bo‘lmasin, illatlari, kamchiliklari qanchalik ko‘p bo‘lmasin, kimningdur yaxshi kunida o‘zini ijobiy tutmog‘i, ya’nikim yomonliklarini uyida qoldirib ketmog‘i lozim. Hatto shunday tadbirlarda ham, ba’zilarning o‘tgan ketganning g‘iybatini qilib, og‘zidan har xil nojo‘ya gaplar chiqadigan holatlariga guvoh bo‘lganmiz.

“To‘yning boshi boshlanguncha” – ushbu maqol ham xalq orasida juda keng tarqalgan, ayniqsa, qishloq joylarda. Nega aynan qishloq joylarida? Bunga sabab esa qishloq aholisini odatda uzoq yillar davomida bir hududda yashab kelayotgan odamlarni tashkil etishi, ularning o‘zaro yaqinligi, ko‘p hollarda hatto qarindoshligidir. Xo‘sh, unda shahar joylarda qanday? Ko‘pchilikka ma’lumki, shahar aholisini o‘qish yoki ish sababli qo‘shni hududdan bo‘lgan odamlar tashkil qilishadi. Endi e’tiborni asosiy maqolga qarataylik. Xo‘sh maqolimizni aholining qanchalik bir-birlariga yaqinligiga nima aloqasi bor? Aftidan, ahamiyati g‘oyatda katta. Ushbu maqol odatda biror bir shaxs to‘yni



boshlashga biroz cho‘chib turganda aytiladi va aksariyat hollarda bu cho‘chish moddiy qiyinchiliklarga borib taqaladi. Ana shunday paytlarda bizning oqibatli xalqimiz ushbu maqol bilan bir-birini yupatadi. Buni tagida juda katta ma’no bor, ya’ni to‘yni boshlayverish lozimligi, yetmagan hollarda qo‘shnilar joni bilan yordam berishga tayyorligiga ishora qilinadi. Ha, darhaqiqat, bu gap ba’zi hollarda shunchaki aytilayotdek tuyulishi mumkin. Lekin qo‘shnilar kerak bo‘lsa o‘zlarining dasturxonidan olib bo‘lsa ham qiyin vaziyatdagi qo‘shnisiga ulasha olishadi.

Yana shunday xalq maqollari borki, bularda asosiy urg‘u yoshlarning bir-birlariga to‘g‘ri kelishiga qaratiladi. Masalan: teng-tengi bilan, tezak qopi bilan, yoki bo‘lmasa, onasiga qarab qizini ol kabilardir. O‘z nomi bilan to‘ydan keyingi hayotni turmush deb qo‘yishibdi. Xalqimiz bejizga turmush – musht deb aytishmagan. Ertangi kunda har xil moddiy yoki ma’naviy jihatlardagi nomutanosibliklar paydo bo‘lib, har xil tushunmovchiliklar yuzaga kelmasligi, ba’zi hollarda buning natijasida bolalar yetim qolmasligi uchun ham teng tengi bilan maqoli yuzaga kelgan va necha yillar o‘tsa hamki, ahamiyatini yo‘qotmay kelmoqda. Keyingi “Onasiga qarab qizini ol” maqoli hamma zamonlarda ham juda aktual hisoblangan. Har bir sharqiy oilaga xos bo‘lgan xususiyatlardan biri shundaki, oilada qiz bolaga onasi tarbiya beradi. Demak, qizning qay darajada o‘zini tutishi, muomala qilishi onasi bergan tarbiyaga har tomonlama bog‘liq. Shundan kelib chiqadiki, onasiga qarab qiziga baho berish mumkin.

Bundan tashqari quyidagi maqollar ham to‘y mavzusiga doir hisoblanadi. Bular: *“To‘ying bo‘lsa, tomoshago‘y topilar”*, *“To‘ydan oldin nog‘ora qoqma”*, *“Kelinni kelganda ko‘r, sepini yoyganda ko‘r”*, *“Kuyovni payg‘ambarlar siylabdi”*, *“Umr savdosi – qiyin savdo”*, *“Er xotinning urushi – doka ro‘molning qurishi”*, *“Qizi bor uy bozor”* kabilar ham turli o‘rinlarda, turli vaziyatlarda qo‘llanilib, aynan to‘y-tomosha mavzusini yanada ochib berishga xizmat qiladi.



Bundan tashqari aza – ya’ni kimningdur vafoti munosabati bilan tashkil qilinadigan tadbirlarda ham xalq tomonidan turli xil maqollar qo‘llaniladi. Bular ba’zida kimning g‘ami qanchalar qayg‘usi kattaligini ochib berish, kesatiq kabi ma’nolarda qo‘llaniladi. “*Kimga to‘y – kimga aza*”, “*Azaga borgan xotin o‘z dardini aytib yig‘laydi*” kabilarni misol keltirib o‘tsak bo‘ladi. Aslini olganda aza marosimi “bayram” yoki tadbir guruhiga mansubdir. Unga ham aytilgan va aytilmagan odamlar tashrif buyurishadi. Keling ushbu toifaga mansub bo‘lgan biror maqolni ko‘rib, tahlil qilib chiqamiz. Misol tariqasida “*Azaga borgan xotin o‘z dardini aytib yig‘laydi*” maqolini olsak. Nozik jins vakilalari bo‘lmish ayollarimiz odatda ko‘ngli bo‘sh bo‘lishadi va odatda yig‘iga moyillik ularda ko‘proq bo‘ladi. Hech kimga sir emaski, har birimizning jonimiz omonat. Bundan kelib chiqadiki, har bir insonning kimidir albatta vafot etgan bo‘ladi. Ayollar esa o‘ta hissiyotga beriluvchan bo‘lganliklari bois aza marosimlarida qarindoshlarini esga olishadi va albatta yarasi yangilanadi, qayg‘usiga qayg‘u qo‘shiladi.

O‘zbek xalq maqollari ichida milliy qadriyatlarimizni ifoda etuvchi oila va qarindosh – urug‘ haqidagi maqollar ham talaygina. Bularga ko‘plab misollar keltirib o‘tish mumkin. “*Yaxshi erga bersang qizni, silay-silay sulton qilur, yomon erga bersang qizni, ura-ura ulton qilur*”, “*Chiqqan qiz – chig‘iriqdan tashqari*”, “*Bolalik uy bozor – bolasiz uy mozor*” kabilarni misol keltirish mumkin. Yuqorida sanab o‘tilgan maqollarning har biri alohida ahamiyatga ega va o‘z o‘rnida dolzarb hisoblanadi. Ammo bularning ichida e’tiborli va dolzarb deb hisoblangani bu “*Chiqqan qiz – chig‘iriqdan tashqari*” maqolidir. Xo‘sh nega bunday? Avvalo bu maqolning qay o‘rinda ishlatilishiga e’tibor qaratishimiz lozim. Hozirgi kunda, nafaqat hozirgi kunda balki barcha zamonlarda ham oila qurgan ikki yosh juftlik o‘rtasida turli xil bahs-munozaralar bo‘lib turgan. Bu narsa qaysidir ma’noda turmushning ajralmas bir bo‘lagidir. Ko‘pincha guvohi bo‘lamizki, shunday paytlarda qizlar o‘z ota uylariga ketib qoladilar, yoki ketib qolish bilan qo‘rqitishga urinadilar. Shunday paytlarda ko‘pincha otaonalarimiz yoshlarning turmushini saqlab qolish uchun aynan shu maqolni



ishlatadilar va unga amal qiladilar. Qizlariga endi u boshqa oila a'zosi ekanligini tushuntirib, turmush o'rtog'i bilan har qanday holatda ham yarashish lozimligini uqtiradilar. Oilaning sirini ota uyiga olib kelmasligi shartligi uqtiriladi. Bir so'z bilan aytganda qondosh bo'lsalarda endi boshqa-boshqa oila a'zolari ekanligi, *"Er xotinning urushi – doka ro'molning qurishi"* ekanligi tushuntiradi. Albatta, guruch kurmaksiz bo'lmaganligi kabi shu kabi vaziyatlarda faqat qizini yonini olib, darrov ajrimgacha olib boradigan ota-onalar ham yo'q emas. Ular ayni vaziyatda bilishmaydiki, farzandlarining kelajagiga jiddiy zarba berishayotganliklarini. Aynan shu kabi illatlar ajrashgan oilalar va yetim bolalar sonining oshishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

The United States is a culturally diverse nation that celebrates a variety of holidays and traditions throughout the year. These celebrations not only reflect the country's history and values but also showcase the rich tapestry of its people. From Independence Day to Thanksgiving, here are some of the most prominent holidays and traditions observed in the USA.

Independence Day, celebrated on July 4th, commemorates the country's declaration of independence from British rule in 1776. This day is marked with fireworks, parades, barbecues, and family gatherings, symbolizing national pride and unity.

Thanksgiving, held on the fourth Thursday of November, is a time for Americans to express gratitude for their blessings. Families come together for a festive meal, typically featuring roasted turkey, cranberry sauce, and pumpkin pie. It is a cherished tradition that dates back to the Pilgrims' arrival in Plymouth, Massachusetts, in 1620.

Christmas, observed on December 25th, is a Christian holiday celebrated throughout the country. It is a time for families to exchange gifts, decorate Christmas trees, and partake in festive meals. Many cities also adorn their streets with dazzling lights and host parades and holiday-themed events.



New Year's Eve is a night of celebration and anticipation for the upcoming year. People gather for parties, fireworks displays, and the famous ball drop in Times Square, New York City. It is a time for reflection, resolutions, and new beginnings.

Easter, a Christian holiday, is widely celebrated in the USA. It marks the resurrection of Jesus Christ and is observed with church services, egg hunts, and the exchange of chocolate eggs and other treats.

Other significant holidays include Martin Luther King Jr. Day, honoring the civil rights leader;

Memorial Day, commemorating fallen soldiers; Labor Day, celebrating the contributions of workers; and Veterans Day, honoring military veterans.

Moreover, cultural diversity is also celebrated in the USA. Festivals like Chinese New Year, Diwali, Hanukkah, and Ramadan are observed by communities across the country, reflecting the multicultural fabric of American society.

While these holidays and traditions represent some of the most widely recognized and celebrated occasions in the USA, it is important to note that different regions and communities may have their unique cultural festivals and traditions that add to the diversity of the nation.

In conclusion, holidays and traditions in the USA reflect the country's history, values, and multiculturalism. From national observances like Independence Day and Thanksgiving to religious celebrations like Christmas and Easter, these occasions bring families and communities together, fostering unity and gratitude. As the nation continues to evolve, these holidays and traditions serve as a reminder of the shared heritage and diverse tapestry that make America a vibrant and inclusive society.



REFERENCE:

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2016. –59 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni/Xalq so‘zi, 2017 yil. 8 fevral’. –№28(6722).
3. Abduazizov A.A. O sostavnix chastyax kognitivnoy lingvistiki//Prepodovanie yazika i literaturi. – T.: 2007.-№3. –B.34
4. Abduazizov A.A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – T.: Sharq, 2010. –176b.
5. Abu Nasr Farobiy.Fozil odamlar shahri. – Toshkent. : A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. –.... b.
6. Askol’dov S.A. Konsept i slovo/Russkaya slovestnost’. Ot teorii slovestnosti k strukture teksta. M.: Akademiya, 1997.
7. Aynazarov G.B. Simmetrichnie dvuxkomponentnie frazeologizmi v karakalpakskom yazike. Nukus.: 2000.
8. Arutyunova N.D. Metafora i diskurs//Teoriya metafori: Sbornik pod red. N.D. Arutyunovoy i M.A. Jurinskoy. –M.: Progress, 19 90. –S 5-15.
9. Yusupov, O. Y. (2020). ETYMOLOGICAL AND PRO-ETYMOLOGICAL DOUBLET IN ENGLISH. *Theoretical & Applied Science*, (2), 417-420.
10. Sherzodovich, A. S., & Jamshedovich, B. F. THE MAIN FEATURES OF THE TRANSLATION OF LITERARY TEXT. *Sciencepublish. org*, 16.
11. Kamolova saida zufar qizi; botirova hakima. peculiarities of teaching a foreign language to young children.
12. Новости образования: исследование в XXI веке, [S. l.], v. 1, n. 8, p. 694–697, 2023.
13. Disponível em: <https://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/6230>. Acesso em: 2 apr. 2023.



14. Botirova, Hakima. "Translation Methods in Literary Translation." Scienceweb academic papers collection (2021)
15. Akramova Yorqinoy, & Botirova Hakima. (2023). ADAPTING LEARNING AND TEACHING MATERIALS: STRATEGIES FOR INCLUSIVE EDUCATION.
16. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(10), 720–722. извлечено от <https://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/8731>
17. Kholboyeva Aziza , Botirova Hakima, MATERIAL DESIGN WITH SPECIFIC REFERENCE TO TASKS , Новости образования: исследование в XXI веке: Том 1 № 10 (2023): Новости образования: исследование в XXI веке
18. Sobirovna, A. K., & Hakima, B. (2023). Relationship between Syllabus, Course Book and Materials. European Journal of Higher Education and Academic Advancement, 1(2), 162–164.